

## BOSHLAG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA CHET TILLARINI O'RGATISHDA LEKSIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Dehqonov Islomjon Teshayevich,  
*FDU, chet tillari fakulteti nemis  
va fransuz tillari kafedrasida katta o'qituvchisi,*  
Rahmonova Gulchiroy Yoqubjon qizi,  
*FarDU, chet tillari fakulteti  
fransuz tili yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilariga chet tillarini o'rgatish usullari hamda darslarda leksik o'yinlardan foydalanish haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Leksik o'yinlar, kommunikativ metod, muhokama qilish,*

Chet tili o'quvchilarning kommunikativ madaniyatlarini rivojlantiruvchi va ularning bilish qobiliyatlarini kengaytiruvchi fan sifatida, uni o'rgatish ta'limning hamma bo'g'inlarida, ayniqsa boshlang'ich sinflarda ham o'rgatish tavsiya etiladi.

**Leksik o'yinlar chet tillarini o'rgatish usullaridan biridir.**

Leksik o'yinlar dars jarayonida o'quvchilar kommunikativ masalalarni hal qilishlarida chet tillarini o'rganish vositasi bo'lib, kommunikativ metodning usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. Shuning uchun leksik o'yinlarning maqsadi dars jarayonida qo'yilgan kommunikativ masala va topshiriqlarni hal qilishda chet tillarida muloqot tashkil qilishdan ibiraddir.

Leksik o'yinlar yuqori ko'rgazmalilik darajasiga ega bo'lib, taqlid qilish va andoza olishdek aniq muloqot jarayonida va nutq vaziyatlarida o'rganilayotgan til materialini faollashtiradi.

Leksik o'yinlar til o'rgatish, kommunikativ va ijodiy topshiriqlarni mujassam qilgan o'quv vazifasini o'z ichiga oladi. Til topshiriqlarini hal qilish, dars jarayonida, nutq faoliyatida til materialidan madsadli foydalanishda nutq ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutadi [1.24]. Leksik topshiriqlar o'yin ishtirokchilarining birgalikdagi faoliyatlarida o'zaro ma'lumot almashuvlarini o'z ichiga oladi.

Leksik o'yinlar asosida farqlash usuli yotadi.

Bu usul aniq predmetlarni qimmatiga va ularning muhimligiga qarab ajratishni nazarda tutadi. O'yin jarayonida, odatda, ma'lumotlar saralanishi bo'yicha turli nuqtayi nazarlar mavjud bo'lganligi uchun, bahs yuzaga keladi va o'quvchilar juftlikda yoki guruhda o'z fikrlarini asoslab beradilar [2.18].

Leksik o'ynlarni olib borishdagi variantlar:

- o'quvchilar mustaqil ishlaydilar, muammo yuzasidan o'z qarorlarini yozib boradilar, keyin juftlikda yoki guruhda o'z qarorlarini muhokama qiladilar;
- o'quvchilar kichik guruhlarda ishlab umumiy qarorga kelishga xarakat qiladilar va muhokama chog'ida bu qarorni asoslab beradilar;

Bu usul o'quvchilarda muloqot jarayonida, nutqni faollashtirish va noaniq faktlarni tushuntirishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ma'lumot almashish bir tomonlama yoki ikki tomonlama bo'lishi mumkin. Bir tomonlama ma'lumot almashuvda bir o'quvchi biror aniq ma'lumotga ega bo'ladi, ikkinchi o'quvchi esa bundan behabar bo'ladi. Ikkinchi o'quvchining vazifasi birinchi o'quvchi bilan muloqarga kirib, o'zida yo'q ma'lumotga ega bo'lishdir [1.33]. Ikki tomonlama ma'lumot almashuvda o'quvchilar o'zaro hamkorlikda ish olib borib, umumiy muammoni hal qilish uchun o'zida bor ma'lumotlarni birlashtiradilar.

Chet tillarini erta o'rgatishni boshlash o'quvchilarni yangi til olamiga kommunikativ-psixologik etra moslashishlari uchun sharoit yaratadi, chet tillaridan muloqot sifatida foydalanib keyinchalik psixologik to'siqlarni yengishlariga yordam beradi, hamda o'quvchilarni, maktab va oila hayotiga oid turli vaziyatlarda ishtirok etishlari orqali yangi ijtimoiy tajribaga o'rgatib, o'quvchilar til imkoniyatlari va extiyojlarini hisobga olgan holda ularda chet tilida muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bolalarga mos darajada chet tilida samarali muloqot qilish shartlaridan biri – bu leksik ko'nikmalarni to'g'ri shakllantirish bo'lib, chet tili o'qitish mazmunining muhim komponenti hisoblanadi [2.22]. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, taxminan boshlang'ich sinflarning o'rtalarida leksika o'qitishning samaradorligini ko'tarish muammosi toradi. Bunga sabab o'quvchilarda aniq keksik zaxira to'planadi, ularga yangi so'zlarni yod olish va esda saqlash tabora qiyinlashib boradi. Leksik birliklarni sedan chqarish jarayoni boshlanadi. Shu tufayli nutqning sifati boziladi (ham og'zaki ham yozma) chunki u keksik ko'nikmalarni shakllanishiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari muloqot vaziyatlarining doirasini kengayib borishi leksik birliklar ko'lami ortishini va leksik ko'nikmalar barqarorroq bo'lishini talab qiladi. Leksik ko'nikmalat nutq faoliyatining leksik tomonini tominlovchi muhim komponentlardan birini o'zida aks ettiradi. Leksik ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat:

- 1) kirish va tushuntirishni o'z ichiga olgan tanishish;
- 2) leksik birliklarni qo'llash mashqlari (birinchi mustahkamlash);
- 3) leksik birliklarni ishlatish (nutq faoloyatiga so'zlarni kiritish).

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik rivojlanishining o'ziga hos tomonlari va ularning ta'lim olish faoliyatlari, leksik ko'nikmalarning shakllanish jarayoni bilan bog'liq psixologik faktorlarni o'rganish ilmiy ishimizning uchinchi vazifasi bo'lib u bizda quyidagi xulosani keltirib chiqardi:

Leksik ko'nikmalarni samarali shakllantirish uchun tushunarli va mustahkamlangan materialning taqdim qilish sharti va tartibiga amal qilish talab etiladi [3.17]. Uyqorida sanab o'tilgan talablarning ko'plari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarining talablari asosida, ayniqsa ularning ko'chadigan predmetlarga nisbatan ta'sitchanligi, tayanchli– sezuvchi ko'rgazmalarga unutiluvchanligi, g'ayriyixtiyoriy eslab qolish qobiliyatlarining ustunligi, diqqatning turg'un emasligi, mustaqil ishlay olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi [3.22].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tanlab olinadigan leksik materialning alohida mezonlari mavjud:

- 1) shu davrda o'rganiladigan hamma so'zlar , bolaga tushunarli va ona tilida tanish bo'lgan so'zlar, bo'lishi kerak;
- 2) so'zlar tilda ko'p qo'llaniladigan va bir-biriga mazmunan bog'langan bo'lishi kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бабинская П.К., Андреасян И.М. и др. Практический курс преподавания иностранных языков: Учеб. Пособие – изд. 2-е. – Минск. 2003.
2. Fuchsen, M. Starting language early: A rationale / M. Fuchsen.– Woodstock, Spring, 1989. – P. 12-23.
3. Утехина, А.Н. Иностранный язык в дошкольном возрасте: теория и практика: – Ижевск: Удмуртский университет, 2000.
4. I.T.Dehqonov.Tarjimashunoslikda ekzotizm tushunchasi va uning tafsifi haqida. (2020) Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 12 (12), 250-253
- 5.Dehqonov Islom Teshaeovich.(2021) Fransuz, o'zbek va rus tillarida sodda nutqning qiyosiy taxlili: tarjimada leksik ekvivalent topish muammosi. FarDU ILMIIY XABARLARI. 2 (2), 212-214
6. Dehqonov Islom Teshaeovich.(2022) FRANSUZ NUTQIY ETIKETIDA PRAGMATIKA VA INTONATSIYA. GOSPODARKA I INNOWACJE. Volume: 24.975-978.
7. Dehqonov, I.T. (2022). NUTQIY ETIKET BIRLIKLARI (FRANSUZ VA O 'ZBEK TILLARI MISOLIDA). IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 222-226.

8. Dehqonov Islom Teshaeovich. (2022). UZBEK AND FRENCH SPEECH ETIQUETTE UNITS. *JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal* 12 (12) 61-64
9. I.T.Dehqonov. Les competences interculturelles, un avantage aupres des recruteurs en etrenger. (2022) *Международная научно-практическая конференция* 3 (3), 137-139
10. Dehqonov Islom Teshaeovich.(2021) L'interculturel en francais langue etrengere. *Международная научно-практическая конференция*. 3 (3) 135-137.
- 11.Ahrorova, R. U. (2021). SEMANTIC ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS REPRESENTING "YOUTH" IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES. *Theoretical & Applied Science*, (7), 122-126.
12. AKHROROVA, R. U. (2021). THE LINGUISTIC IMAGE OF THE WORLD AND THE GENDER ASPECT OF THE CONCEPT OF" AGE" IN FRENCH AND UZBEK. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 585-589.
13. Shahlo Akbarova G'aniyevna. Issues of intercultural communication and reception. *Ijodkor o'qituvchi*.28-son.5-aprel.2023. pages 198-201.
14. Rahimov Zokir Azimovich, Jurayeva Shalolaxon Xusanboyevna, NUTQNING AHAMIYATI VA UNING TURLARI, *Journal of new century innovations*, 2023/3/17, Volume 25, Issue 1, Pages 107-112.
15. Шалола Жураева, Мохинур Жўраева, ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСЛИКДА ЛУФАТШУНОСЛИКНИНГ АҲАМИЯТИ, *Eurasian Journal of Academic Research*, 2022/12/19, Volume 2, Issue 13,Pages 626-630.
16. Jurayeva Sh.X. "CHET TILINI O'QITISHDA ELEKTRON DARSLIKLARNING AHAMIYATI". *Eurasian journal of Academic research*. Volume 1, Issue 8. 98-100. 2021.
17. Zinatullina A.X.,FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA MURAKKAB GAPLARDA ZAMON QO'LLANILISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, *IQRO JURNALI / 2023, VOL-2 ISSUE-1, E-ISSN : 2181-4341*.
18. Zinatullina A. H, The Word Order within the Complex Sentences of French and Uzbek Languages,*Universal journal on innovative education*, Volume 2 Issue 3, Year 2023, pages 20-21-22.
19. Yorkinoy Nasirdinova. (2022). MODERN FRENCH NATIONAL RESEARCH CENTERS FOR THE STUDY OF CENTRAL ASIA: THE CENTER FOR RESEARCH ON THE IRANIAN WORLD. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 534-538.

20. Yorkinoy Nasirdinova. (2022). CENTRAL ASIA THROUGH THE PRISM OF FRENCH ORIENTAL STUDIES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 1017–1025.

21. 3. S Tulanov. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10 (11), 1002-1007, 2022.

22. S Tulanov. INCONTROLABLE AND TEMPORALITY IN RUSSIAN AND FRENCH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10 (11), 996-1001, 2022.